





SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATI CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*2021- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*



Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8 748,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,7 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 761,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,2 %ni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 987,0 mlrd. so'mni (106,7 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 811,3 mlrd. so'mni (137,3 %ni) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8 748,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,7 %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 79,9 % va yirik korxonalar hissasi 20,1 %ga to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Samarqand sh.
3 549,4

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib jamiga nisbatan 40,6 %ni yoki 3 549,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Pastdarg'om
484,5

Bulung'ur
385,5

Kattaqo'rg'on
376,0

Ishtixon
293,0

Narpay
257,8



Toyloq
234,7

Paxtachi
170,1

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Paxtachi tumanida 1,9 % yoki 170,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, 6 987,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 6,7 %ga ko'paydi. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 79,9 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,9 %) va Jomboy (99,0 %), Nurobod (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,9 %), Ishtixon (98,7 %), Narpay (98,6 %), Qo'shrabot (98,7 %) va Payariq (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'ldi.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yil yanvar-iyun

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Jomboy tumanida (110,9 %), Paxtachi (109,4 %) va Payariq (110,1 %) tumanida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	8 748,9	105,7	1 761,9	102,2	6 987,0	106,7
Samarqand shahri	3 549,4	103,2	1 632,1	102,9	1 917,3	103,5
Kattaqo'rg'on shahri	603,0	109,0	0,7	108,6	602,3	109,0
tumanlar:						
Oqdaryo	227,5	107,6	4,5	121,7	223,1	107,3
Bulung'ur	385,5	104,8	10,8	18,4	374,7	121,1
Jomboy	301,6	110,9	3,1	98,8	298,6	111,1
Ishtixon	293,0	107,3	3,9	98,5	289,1	107,5
Kattaqo'rg'on	376,0	109,0	4,0	115,4	372,0	109,0
Qo'shrabot	173,0	109,5	2,3	109,1	170,7	109,6
Narpay	257,8	104,5	3,5	111,6	254,3	104,4
Payariq	344,2	110,1	4,7	105,9	339,4	110,2
Pastdarg'om	484,5	106,8	25,2	144,8	459,3	105,2
Paxtachi	170,1	109,4	3,3	114,9	166,8	109,3
Samarqand	319,5	105,0	7,6	121,7	311,9	104,7
Nurobod	187,6	106,7	2,2	115,3	185,4	106,6
Urgut	841,5	106,5	20,4	125,5	821,1	106,1
Toyloq	234,7	108,5	33,6	3,4 m.	201,0	97,4

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,2 %ga o'sdi va 1 761,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 20,1 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 6 987,0 mlrd. so'mni va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,7 %ni tashkil etdi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,9 %ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Jomboy (99,0 %), Nurobod (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,9 %), Ishtixon (98,7 %), Qo'shrabot (98,7 %) va Payariq (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 20,1 %ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (46,0 %), Bulung'ur (2,8 %), Toyloq (14,3 %) va Pastdarg'om (5,2 %) tumanlarida kuzatildi.



SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 206,5 ming so'm (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,8 %ni tashkil etdi) va viloyatning ayrim hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toyloq (106,0 %), Paxtachi (107,9 %), Qo'shrabot (107,6 %), Kattaqo'rg'on (107,2 %), Jomboy (108,3 %) va Payariq (107,9 %) tumanlarining hissasiga to'g'ri keldi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng quyi hajm Ishtixon tumanida (1129,4 ming so'm), Toyloq tumanida (1138,0 ming so'm) va Paxtachi tumanida (1162,1 ming so'm) kuzatildi.




	Hajm, Ming so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	2 206,5	103,8
Samarqand shahri	6 401,1	102,0
Kattaqo'rg'on shahri tumanlar:	6 633,9	107,6
Oqdaryo	1 401,0	105,6
Bulung'ur	2 025,8	103,0
Jomboy	1 705,0	108,3
Ishtixon	1 129,4	105,3
Kattaqo'rg'on	1 353,1	107,2
Qo'shrabot	1 289,9	107,6
Narpay	1 192,4	103,0
Payariq	1 346,0	107,9
Pastdarg'om	1 340,6	104,8
Paxtachi	1 162,1	107,9
Samarqand	1 240,6	103,0
Nurobod	1 222,8	104,7
Urgut	1 612,3	104,0
Toyloq	1 138,0	106,0

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 811,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 137,3 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 190,9 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 89,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 620,4 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 163,9 %)ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA
(PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 190,9 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 620,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	811,3	137,3	190,9	89,9	620,4	163,9
Samarqand shahri	21,9	105,9	20,4	66,1	1,5	12,2
Kattaqo'rg'on shahri	184,1	138,7	19,8	52,3	164,3	3 m.
tumanlar:						
Oqdaryo	55,4	137,0	5,6	64,1	49,9	2,1 m.
Bulung'ur	61,5	132,6	21,2	159,6	40,2	131,5
Jomboy	88,6	167,3	16,3	131,7	72,3	2,7 m.
Ishtixon	46,3	143,3	6,1	61,3	40,2	190,8
Kattaqo'rg'on	65,7	144,0	21,2	151,2	44,5	169,3
Qo'shrabot	35,7	2,1 m.	7,1	87,7	28,6	2,2 m.
Narpay	15,6	104,5	14,5	139,9	1,0	16,9
Payariq	77,3	128,2	27,9	193,8	49,5	149,7
Pastdarg'om	27,9	122,5	4,6	54,0	23,4	81,0
Paxtachi	33,0	158,8	5,9	83,3	27,2	138,8
Samarqand	17,2	86,5	0,5	12,2	16,6	102,4
Nurobod	30,4	129,6	10,9	129,3	19,6	100,2
Urgut	27,2	133,9	6,6	36,9	20,6	65,0
Toyloq	23,5	117,0	2,2	37,4	21,2	148,4

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



1,1
mlrd. so'm

Tuzlamalar



53,8
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



3,4
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

27,2
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



9,6
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

22,9
mlrd. so'm



Tuxum

41,6
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

2,8
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 190,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (53,8 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

2,3 mlrd.
so'm



Ziravorlar

24,9
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

1,3
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 620,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 463,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 84,5 mlrd. so'mni, otlar 67,7 mlrd. so'mni, parrandalar 4,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 %ni tashkil etib, 216,6 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,9 %ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 67,1 %lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar –iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	216,6	119,9	71,4	165,6	145,3	105,6
Samarqand shahri	128,0	99,7	32,5	81,3	95,5	108,0
Kattaqo'rg'on shahri	4,5	94,3	0,0	0,0	4,5	94,3
tumanlar:						
Oqdaryo	0,6	93,0	0,0	0,0	0,6	93,0
Bulung'ur	5,3	142,7	2,2	2,7 m.	3,1	107,1
Jomboy	3,3	109,8	0,0	0,0	3,3	109,8
Ishtixon	1,2	103,1	0,0	0,0	1,2	103,1
Kattaqo'rg'on	2,1	118,1	0,0	0,0	2,1	118,1
Qo'shrabot	1,4	110,2	0,0	0,0	1,4	110,2
Narpay	1,9	100,7	0,0	0,0	1,9	100,7
Payariq	2,6	117,7	0,0	0,0	2,6	117,7
Pastdarg'om	16,6	128,9	5,8	2,8 m.	10,8	99,6
Paxtachi	1,0	111,4	0,0	0,0	1,0	111,4
Samarqand	7,4	100,2	0,3	175,3	7,1	98,4
Nurobod	1,0	110,0	0,0	0,0	1,0	110,0
Urgut	3,7	102,5	0,1	143,7	3,6	101,8
Toyloq	36,0	5,9 m.	30,5	0,0	5,6	91,2

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2020- yil
yanvar-iyun



2021- yil
yanvar-iyun



■ Nodavlat mulk

■ Davlat mulki

2020- yil yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,32 %dan 0,29 %ga kamaydi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 216,6 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 119,9) va mulkchilik shakllari bo'yicha 216,0 mlrd. so'm (99,71 %) nodavlat mulk, 0,6 mlrd. so'm (0,29 %), davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (0,29 %)ga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	216 619,1	100,0	215991,0	99,71	628,1	0,29
Samarqand shahri	128 044,9	59,1	127416,8	99,71	628,1	0,29
Kattaqo'rg'on shahri	4 487,1	2,1	4 487,1	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	587,6	0,3	587,6	100,0	-	-
Bulung'ur	5 325,4	2,5	5 325,4	100,0	-	-
Jomboy	3 298,7	1,5	3 298,7	100,0	-	-
Ishtixon	1 149,4	0,5	1 149,4	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	2 105,0	1,0	2 105,0	100,0	-	-
Qo'shrabot	1 408,1	0,7	1 408,1	100,0	-	-
Narpay	1 924,8	0,9	1 924,8	100,0	-	-
Payariq	2 593,5	1,2	2 593,5	100,0	-	-
Pastdarg'om	16 629,4	7,7	16 629,4	100,0	-	-
Paxtachi	966,4	0,4	966,4	100,0	-	-
Samarqand	7 420,4	3,4	7 420,4	100,0	-	-
Nurobod	1 004,5	0,5	1 004,5	100,0	-	-
Urgut	3 709,0	1,7	3 709,0	100,0	-	-
Toyloq	35 964,9	16,6	35 964,9	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 062,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 91,3 %ni tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1111,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 90,5 %ni), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1950,8 mlrd. so'mni (91,8 %ni) va jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 63,7 %ni tashkil etdi.




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘atlari yirik korxonalar bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on shahrida (2,8 marta) va Bulung‘ur (5,5 marta), Tayloq (1299,0 marta), Kattaqo‘rg‘on (3,9 marta) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (61,5 %) va Toyloq (9,0 %), Samarqand (5,6 %) Pastdarg‘om (4,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘zgarish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyu oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	3 062,6	91,3	1 111,883	90,5	1950,8	91,8
Samarqand shahri	1 882,5	91,0	796,207	84,0	1086,3	96,9
Kattaqo‘rg‘on shahri	83,6	95,9	0,343	2,8 m.	83,2	95,7
tumanlar:						
Oqdaryo	51,6	95,9	0,337	198,9	51,3	95,6
Bulung‘ur	114,6	2,4 m.	96,701	5,5 m.	17,9	60,6
Jomboy	73,0	98,7	0,083	35,7	73,0	98,9
Ishtixon	30,3	93,3	0,713	8,5	29,6	123,0
Kattaqo‘rg‘on	50,9	96,9	2,038	3,9 m.	44,9	94,0
Qo‘shrabot	4,9	90,7	0,162	110,3	4,7	89,5
Narpay	26,0	115,4	14,048	143,5	11,9	93,7
Payariq	58,5	87,6	0,509	2,7	57,9	120,8
Pastdarg‘om	125,1	47,5	66,008	31,0	59,1	118,2
Paxtachi	8,4	47,5	0,575	4,9	7,9	128,2
Samarqand	172,4	109,3	0,239	79,7	172,1	109,4
Nurobod	10,6	99,9	0,150	117,4	10,4	99,7
Urgut	93,3	103,9	0,768	2,6 m.	92,5	103,4
Toyloq	277,0	90,9	133,003	1299 m.	144,0	47,3



YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, 1 950,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 91,8 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 63,7 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand tumani (99,9 %), Urgut (99,2 %), Payariq (99,1 %), Oqdaryo (99,3 %), Jomboy (99,9 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,6 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Bulungur (15,6 %), Narpay (45,9 %) va Pastdarg'om (47,2 %) tumaniga to'g'ri keldi.

